



O'ZBEKISTONDA SIL KASALLIGINING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI

To'xtarov B.E., Ablakulov I.D., Makhmanazarov G.A.

Samarqand davlat tibbiyot institute

✓ Rezyume

O'zbekiston Respublikasi aholi orasida sil kasalligining tarqalganligi, kasallanishi, epidemiologik xususiyatlari va oldini olish profilaktik chora-tadbirlari yoritilgan. Hozirda sil kasalligining tobora ko'payib tarqalishi sog'liqni saqlash tizimida jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. JSST ma'lumotlariga qaraganda, yer yuzi aholisining uchdan bir qismi sil mikobakteriyasi bilan zararlangan, shulardan, har yili 8-10 mln. bemor kasallanadi va 2,5-3 mln. odam kasallikdan o'ladi.

Sil bilan kasallanish va o'limning ko'payishida boshqa qashshoq davlatlardan kelayotgan aholi va OIV-infeksiyasining tarqalishi muhim ahamiyatga ega.

Rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda OITS bilan kasallanish zamirida silning rivojlanish davri tezlashmoqda.

Sil, dunyo miqyosida jiddiy va dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. O'zbekiston respublikasida silga qarshi bir qator tadbirlarning olib borilishiga va xalqaro, chet el tashkilotlari tomonidan berilayotgan yordamlarga qaramasdan, sil bo'yicha epidemiologik vaziyat og'irligicha qolmoqda.

Kalit so'zlar: Sil, mikobakteriya, epidemiologiya, epidemiologik ko'rsatkichlar, profilaktika.

ОСОБЕННОСТИ ЭПИДЕМИОЛОГИИ ТУБЕРКУЛЕЗА В УЗБЕКИСТАНЕ

Тухтаров Б.Е., Аблакулов И.Д., Махманазаров Г.А.

Самаркандский государственный медицинский институт

✓ Резюме

Освещаются распространенность, заболеваемость, эпидемиологические особенности и меры профилактики туберкулеза среди населения Республики Узбекистан. Рост заболеваемости туберкулезом в настоящее время является серьезной проблемой в системе здравоохранения. По данным ВОЗ, одна треть населения земного шара инфицирована микобактериями туберкулеза, из них ежегодно заражаются 8-10 миллионов человек. больной заболевает и 2,5-3 млн. люди умирают от болезней.

Распространение туберкулеза и распространение ВИЧ из других бедных стран играют важную роль в увеличении заболеваемости и смертности от туберкулеза.

В развивающихся и развитых странах ускоряется период развития туберкулеза на почве СПИДа.

Туберкулез остается серьезной и актуальной медико-социальной проблемой во всем мире. Эпидемиологическая ситуация по туберкулезу в Республике Узбекистан остается сложной, несмотря на ряд противотуберкулезных мероприятий и помощь, оказываемую международными и зарубежными организациями.

Ключевые слова: туберкулез, микобактерия, эпидемиология, эпидемиологические показатели, профилактика

FEATURES OF THE EPIDEMIOLOGY OF TUBERCULOSIS IN UZBEKISTAN

Tukhtarov B.E., Ablakulov I.D., Makhmanazarov G.A.

Samarkand State Medical Institute

✓ **Resume**

The prevalence, incidence, epidemiological features and preventive measures of tuberculosis among the population of the Republic of Uzbekistan are covered. The increase in the incidence of tuberculosis is currently a serious problem in the health care system. According to WHO, one third of the world's population is infected with Mycobacterium tuberculosis, of which 8-10 million people are infected annually. The patient falls ill and 2.5-3 million people die from diseases.

The spread of tuberculosis and the spread of HIV from other poor countries play an important role in the increase in morbidity and mortality from tuberculosis.

In developing and developed countries, the period of development of tuberculosis due to AIDS is accelerating.

Tuberculosis remains a serious and urgent medical and social problem throughout the world. The epidemiological situation of tuberculosis in the Republic of Uzbekistan remains difficult, despite a number of anti-tuberculosis measures and assistance provided by international and foreign organizations.

Keywords: tuberculosis, mycobacterium, epidemiology, epidemiological indicators, prevention.

Dolzarbligi

Sil, dunyo miqyosida jiddiy va dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Er yuzida yuz berayotgan to'fonlar, ekologik fojialar, qashshoqlik, ijtimoiy o'zgarishlar sil kasalligining ko'payib ketishiga va epidemiya holatiga aylanishiga olib kelmoqda.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining xabar berishicha, er yuzida taxminan 2,1 milliard odam sil bilan zararlangan. Shularning 10 foizida, hayoti davomida sil kasalligi yuzaga kelishi mumkin, bunda OITS katta ahamiyatga ega [1,6,7].

Jahon ommaviy axborot vositalarining ta'kidlashicha, silga qarshi kurashish olamshumul ahamiyatga ega. Shuni ham aytish kerakki, kasallik chegara bilmaydi. Mamlakatlar aholisi o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi, ko'chib yurishlar, qashshoqlik sababli rivojlangan mamlakatlarga sog'lom odamlar qatorida, sil bemorlarining ham kirib borishlarini to'xtatishning iloji yo'q.

O'zbekiston respublikasida silga qarshi bir qator tadbirlarning olib borilishiga va xalqaro dasturlarga qaramasdan, sil bo'yicha epidemiologik vaziyat og'irligicha qolmoqda.

Respublikamizda sil kasalligining tarqalishiga noqulay ekologik vaziyat, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, aholi o'rtasidagi migratsiya, shu jumladan, OIV-infeksiyasi va OITS bemorlar sonining ko'payishi sabab bo'lmoqda. Biroq, so'nggi yillarda jadal va keng ko'lamda profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarning hamda DOTS strategiyasining tadbiriq qilinishi natijasida kasallanish, o'lim ko'rsatkichlarining bir qadar barqarorlashishiga va kamayishiga erishildi.

O'zbekistonda har yili, qariyb 18-20 ming nafar kishi silning faol turlari bilan og'riydi va 2 mingdan ko'proq bemorlar vafot etadi.

Silga qarshi barcha chora-tadbirlar davlat hisobidan bepul amalga oshiriladi. Bu og'ir dardga qarshi kurashish mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin yangi bosqichga o'tdi. Bu sohadagi profilaktik, kompleks davolash, kuzatish ishlari respublika hukumatining diqqat-e'tiborida turibdi.

XXI asrga kelib ham, sil kasalligining tobora ko'payib tarqalishi sog'liqni saqlash tizimida jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. JSST ma'lumotlariga qaraganda, er yuzi aholisining uchdan bir qismi sil mikobakteriyasi bilan zararlangan, shulardan, har yili 8-10 mln. bemor kasallanadi va 2,5-3 mln. odam kasallikdan o'ladi.

Sil kasalligi ko'pincha surunkali kechish xususiyatiga ega, u ayniqsa o'pkani, teri, ichak, buyrak, suyak, bo'g'imlar va boshqa a'zolari shikastlashi mumkin.

JSST silning ijtimoiy-gigienik muammo ekanligini e'tiborga olib, bu infeksiyaning epidemiologiyasini chuqur o'rganish va uni bosqichma-bosqich tugatish bo'yicha dastur ishlab chiqqan.

Bu dasturga muvofiq silga qarshi kurash chora-tadbirlarini har bir mamlakatdagi epidemiologik vaziyatdan kelib chiqqan holda, ilmiy tekshirish natijalariga asoslanib olib borish kerak.

Dunyo bo'yicha 8,8 mln. silga chalingan bemorlar qayd qilinib, ularning 1,5 million nafari vafot etgan. Sil kasalligining dori vositalariga ko'p bardoshli shakliga chalingan bemorlar soni 450,0 mingga yaqin bo'lib, mazkur xastalik bemorlarning yashash muddatiga ta'sir ko'rsatadi va ular kasallikni yuqtirgandan keyin bir necha yil yashaydi. Shu sababli dori vositalariga bardoshli shakliga chalingan bemorlarning tarqalganlik darajasi uning qayd qilingan sonidan uch barobar yuqori bo'lib, dunyo bo'yicha ular sonining bir milliondan oshgani bashorat qilinmoqda.

Silning dori vositalariga bardoshli shakli dunyodagi ko'plab malakatlarda silga qarshi samarali kurashda qiyinchilik tug'dirmoqda va jamiyat sog'lig'ini saqlash tizimi uchun jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Silning dori vositalariga bardoshli shakllarining tarqalish darajasi Sharqiy Evropa va sobiq ittifoq tarkibiga kirgan davlatlarda eng yuqori hisoblanadi.

Respublikamizda sil kasalligini tashxislash va samarali davolash borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu borada Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tavsiyalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi natijasida sil kasalligiga chalingan bemorlarga barvaqt tashxis qo'yish, uning dori vositalariga bardoshli shakllarini qisqa muddatlarda molekulyar-genetik ekspress usullar yordamida aniqlash imkoniyati yaratildi.

Shunday qilib, sil kasalligi epidemik jarayoning faollashishi qator tibbiy - ijtimoiy omillarga, aholi tomonidan shaxsiy gigiena me'yorlariga, sog'lom turmush tarzi tamoyillariga rioya etilmasligiga bog'liq.

Bu hol mazkur muammoni kasallikning zamonaviy epidemiologik xususiyatlari, laboratoriya tashxisot usullaridan foydalanib batafsil o'rganishni, ushbu infeksiya epidemiologik nazorat tizimini takomillashtirish zaruriyatini belgilab beradi.

Tadqiqot maqsadi: O'zbekiston Respublikasida sil kasalligining zamonaviy epidemiologik xususiyatlarini o'rganish.

Tadqiqot material va tadqiqot usullari

O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining sil bilan kasallanishi bo'yicha rasmiy hisobotlari. Sil kasalligi epidemik o'choqlarini epidemiologik tekshirish xaritalarining tahlili. Ushbu ilmiy ish bajarilishida epidemiologik usuldan foydalanildi.

Sil kasalligining epidemiologik xususiyatlari: Turli biologik turlari, ayniqsa odam va turli hayvonlar uchun patogenligini hisobga olib sil mikobakteriyalarining 4 turi farqlanadi: M.tuberculosis, M.bovis, M.avium, M.microti.

Mikobakteriyalarning tashqi muhit ta'sirotlariga chidamliligi quyidagicha: ko'cha changida 10 kungacha, kitob varaqlarida 3 oygacha, suvda 150 kungacha, tarqoq yorug'likda 1-1,5 oy, quritilgan holda 1-1,5 yil, vakuumda muzlatilgan holda liofilizatsiya qilingan holda 30 yilgacha, ultrabinafsha nurlar ostida 2-3 daqiqa, biroq quyosh nuri bilan nurlantirilganda 1-1,5 soat, qaynatilganda 5 daqiqa, quruq issiqda 45 daqiqa, 3-5% li xlorli ohak eritmasida 5 soat, 1-2% xloramin eritmasi, faollangan ammoniy-sulfatda 3 soat, 10-20%li xlorli ohakda 2,5 soatda o'ladi.

Kasallanish silning eng muhim epidemiologik ko'rsatkichi sanaladi. Dispanser tomonidan bir yil ichida, 100 ming aholiga nisbatan birinchi marta aniqlangan faol sil bo'lgan bemorlar kasallanish soni hisoblanadi.

Natija va tahlillar

Umuman olganda, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda sil bilan kasallanish tobora kamayib bormoqda, kamayish darajasi esa turlicha. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, ushbu ko'rsatkich hali ham yuqori darajada saqlanmoqda. SHu boisdan ham sil hanuz muammo bo'lib turibdi.

Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, chet elga ketgan odamlar (migrantlar) orasida kasallanish ko'rsatkichi mahalliy aholiga qaraganda 15-60 marta ortiq bo'ladi.

1990 yil bilan solishtirilganda, barcha davlatlarda, jumladan, rivojlangan mamlakatlarda ham sil bilan kasallanish tobora ko'payib bormoqda va bu hamma uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Buning asosiy sababi – ko'pchilik davlatlarda silga qarshi kurashish darajasi keyingi yillarda pasayib ketgan, shu bilan birga, aholining bir joydan boshqa erga ko'chib yurishi, OIV infeksiyasining tahdidi ham katta ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda OITS anchagina tarqalgan hududlarda sil bilan kasallanishning ko'payishga moyilligi qayd qilingan. Bu xastalikda hujayra immuniteti keskin darajada o'zgarib ketadi, bu esa, tuberkulin reaksiyalarining namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. OITS va sil bilan og'rigan bemorlar orasida 60 foiz hollarda o'pkadan boshqa a'zolar sili qayd qilinadi. SHuningdek, ko'krak qafasi rentgenogrammalarida diffuz yoki miliar o'zgarishlar uchraydi. Bunday bemorlarda kimyoterapiyadan keyin ham sil qaytalashi mumkin. Bundan tashqari, rivojlanayotgan davlatlarda, aholi ijtimoiy va iqtisodiy ahvolidan yomonlashib borishi ham kasallanish ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

Sodiqov E.S. va Hamroqulov R.SH. o'tkazgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, Respublikamizda balg'am bilan M bovinus turini ajratuvchi bemorlar ko'paygan, bu ko'rsatkich o'rta hisobda 11-12%

tashkil etsa, chorvachilik hududlarida 21 % etgan. SHu sababli, tibbiyot xodimlari va veterinarlari hamkorlikda bu muammoga bag'ishlangan qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazishlari zarur.

Sildan o'lim ko'rsatkichlari. O'lim ko'rsatkichi 100 ming aholiga nisbatan bir yil mobaynida sildan o'lganlar sonidir. O'lim ko'rsatkichi muhim va ishonchli epidemiologik ko'rsatkich hisoblanadi.

O'lim darajasi faol sil bilan og'rikan bemorlar soniga bevosita ta'sir ko'rsatadi, o'lim ko'rsatkichini hisobga olmay turib, kasallikning kamayganini to'g'ri aniqlab bo'lmaydi. Bundan tashqari, o'lim ko'rsatkichi sil bilan og'rikan bemorlarni davolash, shuningdek erta aniqlash sifatini, tekshirish darajasini ko'rsatadi.

XIX asrning 60 yillariga qadar sildan o'lish ko'pgina davlatlarda yuqori darajada bo'lgan. Hozirgi kunda profilaktik ko'riklar, silga qarshi dorilarning keng qo'llanilishi va aholi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarining yaxshilanishi tufayli, o'lim ko'rsatkichi pasaydi. Lekin ijtimoiy shart-sharoitlar qoniqarsiz darajada qolayotgan mamlakatlarda, bemorlar o'limi hamon kamaymayapti, yuqori darajada rivojlangan davlatlarda iqtisodiy jihatdan yaxshi ta'minlangan odamlar va qashshoqlar o'rtasida o'lim ko'rsatkichi o'rtasida katta tafovut bor.

So'nggi yillarda sil mikobakteriyasining I-II qator antibiotik dorilariga turg'unlik shakli ko'payib bormoqda. SHu sababli davolash samaradorligi pasayib, ko'p holatlarda jarayon surunkali kechishi bilan bir qatorda sil kasalligining tarqalgan shakllari asosida, bronx sili rivojlanishi va bronxlar deformatsiyasiga sabab bo'lmoqda.

OIV-infeksiyasining keng tarqalishi nafaqat OITS kasalligining ko'payishiga olib keldi, balki OITSning tuberkulez bilan birgalikda kelishining ham ko'payishiga sabab bo'ldi. Ma'lumki, OIV bilan zararlangan bemorlarda tuberkulez bilan kasallanish xavfi OIV bilan zararlanmaganlarga qaraganda 6 marta ko'p uchraydi.

OITS bemorlari tuberkulyoz jarayoni tarqalishiga moyil bo'ladi, zararlangan sohalarda granulyomalar hosil bo'lmasdan nekrotik o'zgarishlar va emirilish kuzatiladi, aksariyat o'pkadan tashqari a'zolar tuberkulyozi (tuberkulyoz plevriti, limfa tugunlari tuberkulyozi, tuberkulyoz meningiti) rivojlanadi. Tarqalgan jarayonlarda ko'pincha seroz pardalarning zararlanishi, jumladan tuberkulyoz etiologiyali plevritlar kuzatiladi. Shuning uchun OIV-infeksiya fonida kechuvchi tuberkulyoz etiologiyali plevritning o'ziga xos kelinik kechishi ftizitlarda alohida qiziqish uyg'otadi.

OIV bilan zararlangan bemorlarda tuberkulyoz etiologiyali eksudativ plevritning klinik kechishining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi: og'iz bo'shlig'i kandidozi, II-III darajali kaxeziya, noma'lum etiologiyali diareya, tana haroratining keskin ko'tarilishi (39-40 °S) va boshqalar.

OIV bilan zararlangan bemorlarda tuberkulyoz etiologiyali eksudativ plevrit ko'pincha 30 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan erkaklarda uchraydi. OIV bilan zararlangan bemorlarda tuberkulezni aniqlashning o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Sababi, bu toifadagi bemorlar: vrachlarga murojaati sust, qayta tibbiy ko'riklarga kelmaydi, belgilangan tekshiruvlardan to'liq o'tmaydi.

Respublikada o'lim ko'rsatkichi yil sayin pasayib bormoqda va bu ko'rsatkich 2002 yilda 100 ming aholiga nisbatan 12,3 bo'lgan bo'lsa, 2007 yilga kelib 7,6 ga teng bo'ldi.

Sil kasalligidan hozirgi kunda erkaklar, ayollarga qaraganda ko'proq nobud bo'lmoqda. Ayni paytda o'lim ko'rsatkichi, odamlarning yoshi ulg'aygan sari ortib bormoqda, 30-40 yoshdagi erkaklar va ayollar orasida o'lim ko'rsatkichi past bo'lib, jins bo'yicha bir xil. 50-55 yoshdan keyin, erkaklar orasida o'lim ko'rsatkichi oshib bormoqda.

Shunday qilib, silning epidemiologik ko'rsatkichlari, asosan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va xususan ilm-fan hamda sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat ta'sirida shakllanadi.

Silning rivojlanishida ijtimoiy omillar bilan birga ekologik, epizootologik va tibbiy omillar ham ahamiyatga ega bo'lib, bu xastalik ko'p omilli infeksiya hisoblanadi.

Zararlanish va kasallanish kamayib borgani sari, xastalik aholi orasida infeksiya o'chog'i bo'lib qoladi, ya'ni sil kasalligi shu dardni yuqtirish xavfi eng katta bo'lgan o'choqlarda paydo bo'ladi. Hozirgi vaqtda kattalardagi sil kasalligi, asosan, sildan keyingi o'zgarishlarning endogen reaktivligi natijasida rivojlanadi. Endogen infeksiya xavfi va aholi orasida zararlanganlar soni yuqori darajada saqlanmoqda.

Xulosa

Shunday qilib, kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarining majmui faqat sil kasalligining tarqalishi, silga qarshi o'tkazilayotgan tadbirlar haqida tasavvur qilishgina emas, balki, umuman olganda, Respublika bo'yicha epidemik jarayon jadalligini belgilab beruvchi qonun-qoidalarini baholash uchun zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aksyutina L.P. Podxodi k upravleniyu epidemicheskim protsessom v usloviyax patomorfoza tuberkuleznoy infektsii / L.P. Aksyutina, O.A. Pasechnik // Epidemiologiya i vaksinoprofilaktika. - 2014. -T.75,№ 2. - S. 16-20.
2. Asadov D.A, Xamraev A.K, Mirvorisova L.T, Aripov T. Profilaktika tuberkuleza sredi detey v semeynyx ochagax tuberkuleza Respublike Karakalpakstan. // Sbornik materialov Respublikanskoy nauchno-prakticheskoy konferentsii «Dostijeniya i perspektivy pediatrii v Respublike Uzbekistan». Tashkent. 2012. str.7-8.
3. Asadov D.A., J.T.Gadoev. Vliyaniye sotsialno-demograficheskix i klinicheskix faktorov na letalnye isxody vo vremya lecheniya tuberkuleza. // Meditsinskiy jurnal Uzbekistana. 2017. №6. S. 29-34. 3.
4. Kenjaeva M.A., YUldashev A.V., Rasulov SH.M., Kliniko-epidemiologicheskoe osobennosti zabolevaniya tuberkulyozom sredi detskogo naseleniya. // NIIEMIZ Nauchno-prakticheskaya konferentsiya "Infektsiya i lekarstvennaya rezistentnost" Tashkent.-2017.-S.105.
5. Mustanov A.YU., Matnazarova G.S., Majidova M.SH. Mehnat migrantlari orasida sil kasalligining tarqalish sabablari. // Infektsiya, immunitet i farmakologiya.-Toshkent.- 2019. №6 - B. 121-126
6. Kassu A. et al. «Alterations in serum levels of trace elements in tuberculosis and HIV infections» Eur. J. Clin. Nutr., 2006;
7. Russian Ministry of Health. «Tuberculosis in the Russian Federation in 2011: Analytical review of statistical indicators» Russian Ministry of Health, 2013.

Qabul qilingan sana 09.02.2022